

# Termiz shahrida “O‘zbekiston - umumiy uyimiz!” nomli bayram tadbiri o‘tkazildi



Termiz shahrida “O‘zbekiston - umumiy uyimiz!” nomli bayram tadbiri o‘tkazildi

Bugun, 20 may kuni muhtasham San‘at saroyida Termiz shahar hokimligi tashabbusi bilan shahardagi milliy madaniyat markazlari, viloyat madaniyat boshqarmasi va ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikda turli millat vakillari bir jonu bir tan bo‘lib yashayotgan Vatanda “O‘zbekiston - do‘stlik va birodarlik ulug‘langan yurt” shiori ostida katta bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Barchamizga ma‘lumki, mustaqillikka erishganimizga tarixan qisqa davr, ya‘ni 30 yil to‘ldi. Ana shu yillar davomida mamlakatimizda ulug‘vor asrlarga tatigulik bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Ushbu buyuk yaratuvchanlik ishlarida yurtimizda

istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning vakillari ham faol ishtirok etishmoqda. Chunki mamlakatimizda yashab, mehnat qilayotgan turli millat vakillari shu yurtni aziz bilib, O'zbekistonni Vatan deb ulug'lab, katta oilaning teng huquqli farzandlari bo'lib, ahil-inoq yashab kelmoqdalar.

Bugungi o'tkazilgan tadbirda ham turli millat vakillari tomonidan milliy liboslarda qizlar binoning kirish yo'lakchalarida tadbir ishtirokchilarini karnay-surnay sadolari ostida kutib olishdi. Tadbirda "Biz sening farzandlaringmiz, O'zbekiston!" shiori ostida tashkil etilgan ko'rgazmada shahrimizda faoliyat yuritayotgan tojik, turkman va rus madaniyat markazlarining va turli millatlarning milliy hunardmanchiligi, qadriyatlarini aks ettiruvchi ashyolar va milliy taomlaridan namunalar namoyish etildi.

Tadbir davomida rus, tojik, turkman milliy madaniyat markazlari tomonidan o'z milliy urf-odatlarini aks ettirgan konsert dasturlarini namoyish etishdi. Bayram tadbirida badiiy jamoalarining chiqishlari ishtirokchilarga xush kayfiyat bag'ishladi. Turli millat vakillariga xos bo'lgan o'zida oilaviy qadriyatlarni aks ettiruvchi milliy udum va an'analar namoyishi o'tkazildi. Bayramga tashrif buyurgan vohadoshlarimizning yuzida quvonch, ko'zlarida yurtga muhabbat va sadoqat hissi jo'sh urmoqda. Ozod va obod yurtga bayramlar yarashadi.